



**MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**



**GOSPITAL PEDAGOGIKA SOHASIDAGI DOLZARB MASALALAR, ILG'OR
TAJRIBALAR VA ISTIQBOLLAR**

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ПЕРЕДОВОЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ В
ОБЛАСТИ ГОСПИТАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ**

международная научно – практическая конференция

**CURRENT ISSUES, ADVANCED EXPERIENCES AND PROSPECTS IN THE
FIELD OF HOSPITAL PEDAGOGY**

international scientific - practical conference



3-dekabr 2024-yil



**MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**



**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**GOSPITAL PEDAGOGIKA SOHASIDAGI
DOLZARB MASALALAR, ILG'OR
TAJRIBALAR VA ISTIQBOLLAR**

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ПЕРЕДОВОЙ
ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ В ОБЛАСТИ
ГОСПИТАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ**

международная научно – практическая конференция

**CURRENT ISSUES, ADVANCED EXPERIENCES
AND PROSPECTS IN THE FIELD OF HOSPITAL
PEDAGOGY**

international scientific - practical conference

203.	Юлдашева Гулшад Тилеувна Пономаренко Вероника Павловна	ВЛИЯНИЕ ГЕЙМИФИКАЦИИ НА МОТИВАЦИЮ УЧАЩИХСЯ В ИЗУЧЕНИИ ИНФОРМАТИКИ: ИГРОВЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ (БАЛЛЫ, УРОВНИ, ДОСТИЖЕНИЯ) ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ	945
204.	Xolmo‘minov G‘ofur Bobonazarovich Narzullayeva Nilufar Umidjon qizi	QADIMGI SHARQDA FALSAFIY BILIMLARNING PAYDO BO‘LISHI	951
205.	Туганова Луиза Джураевна Бегалиева Шахзода Бекниязовна	РОЛЬ РЕЛИГИИ В НАЦИОНАЛЬНОМ СОЗНАНИИ И НАЦИОНАЛЬНОМ САМОСОЗНАНИИ	954
206.	Usmonova Rayhona Miraxmedova Shoxida Nusratilloevna	IJTIMOIY TARMOQDAGI TAHDIDLAR	960
207.	Koshanova Nilufar Maxsudovna	MADANIYAT- JAMIYATNING MAVJUDLIK ASOSI VA YASHASH USULI SIFATIDA	965
208.	Turgunova Nargiza A‘zamjon qizi Koshanova Nilufar Maxsudovna	ISLOMDA KASB ODOBLARI	971
209.	Boltaboyeva Mukarramxon Koshanova Nilufar Maxsudovna	ISLOM -MA‘RIFATPARVAR DIN SIFATIDA	974
210.	Tojiyev Erali Xoshim O‘g‘li Koshanova Nilufar Maxsudovna	ISLOM MA‘RIFATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO ISLOM AKADEMIYASINING O‘RNI	979
211.	Ernazarova Munisxon Jo‘raqulovna Bahodirova Mashhura Zafarovna	UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA TA‘LIM JARAYONIDA QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH	986
212.	Ernazarova Munisxon Jo‘raqulovna Ikromova Muqaddas	UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA TA‘LIM JARAYONIDA QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH	991

213.	Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna	TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOG KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	996
214.	Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna	YOSHLARNING INTELEKTUAL SALOHIYATINI ORTIRISHNING BOSH OMILI	1000
215.	Ergashev Shirinbobo Xotam o'g'li	NUTQ SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH VA MAZMUNI	1005
216.	Ziyaboyeva Hilola Rixstillayevna	O'ZBEKISTONDA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	1012
217.	Badalmatova Ziyoda G'ofurjonovna	MA'NAVIY MEROSNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI	1017
218.	Xamidova Feruza Shamsiddinovna	OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKILANTIRISH	1025
219.	Abdullayeva Malika Bazarbayevna	BITIRUVCHI KURS TALABALARINING MA'NAVIY VA MADANIY FAOLLIGINI OSHIRISH	1030
220.	Gulmatova Shohsanam Diyor qizi	TALABALAR ORASIDA ZARARLI ILLATLARNI OLDINI OLIHGGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR	1034
221.	Rashidova Gulandom Mirzayakubovna	TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA TALABALARNING FAOLLIGI	1038
222.	Tashmuhammedova Ilmira Suyundikovna	OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY MA'RIFIY TADBIRLAR O'TKAZISHNING MOHIYATI	1040
223.	Maxanova Aliya Muratovna	BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISH TALABALARIDA PSIXOLOGIK KOMPITETNLIKNI SHAKLLANTIRISH TAMOILLARI	1044

ISLOM MA'RIFATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO ISLOM AKADEMIYASINING O'RNI

Tojiyev Erali Xoshim O'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Xorijiy til va adabiyot (Nemis tili) Yo'nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Koshanova Nilufar Maxsudovna

CHDPU dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasining tashkil qilinishi sabablari, maqsad va vazifalari, hamda Islom ma'rifatini targ'ib qilishdagi roli haqida mushohada qilingan.

Kalit so'zlar: ilm, ma'rifat, bag'rikenglik, Xalqaro Islom Akademiyasi, «jaholatga qarshi ma'rifat, axborot xavfsizligi

Abstract: This article examines the reasons for the establishment of the International Islamic Academy of Uzbekistan, its goals and objectives, and its role in promoting Islamic enlightenment.

Keywords: science, enlightenment, tolerance, International Islamic Academy, "enlightenment against ignorance", information security.

Islom dunyoda ming yillardan oshiq vaqt davomida insonlarni haq yo`liga boshlab, ilm-ma'rifatning keng yoyilishida sabab bo`lib kelayotgan jaxon dinidir. Islomda ilm bu farz bo`lib, ibodatdan ham ustun qo`yilgan. Qur'oni Karimda ilm so`zining 752 marta takrorlanishi dinda naqadar ilm-ma'rifatga yuksak darajada e'tibor qaratilganligidan dalolat beradi. Ammo afsuski, dindan o`z g'arazli maqsadlarini amalga oshirishda foydalanayotgan kuchlar uning asl mohiyatini buzib o`z manfaatlariga moslashtirib olmoqdalar. Bunga misol tariqasida dunyoda 500 dan ortiq ekstremistik tashkilotlarning mavjudligi, ularning ko`pchiligi islom eksteremistik tashkilotlari ekanligi, ammo bu tashkilotlarning ortida noislomiy mamlakatlar va noislomiy kuchlar turganligi dunyoda mafkuraviy kurash ketayotganligidan dalolat beradi.

Bu esa o`z navbatida dinning asl mazmun-mohiyatini xalqga yetkazish asosida jamiyatda bunday salbiy illatlarning oldini olish masalalarini dolzarblashtiradi. Bugungi kunda jamiyatga zarur bo`lgan turli soha mutaxassislarini tayyorlash va islom dinining asl mohiyatini va shu bilan birga insoniyatni ezgulikka eltuvchi din ekanligini ilmiy asoslangan holda teran o`rganish hamda targ`ib etish, hamda o`quv jarayoniga keng joriy etish asosida ta`lim sifatini oshirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5416-son Farmoni hamda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi "O`zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 466-sonli Qarorlari asosida O`zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi tashkil etildi. Farmonga ko`ra diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo`nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

- **«jaholatga qarshi ma'rifat»** ulug`vor g`oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish va bu sohadagi ilmiy-ma'rifiy faoliyatni jadal tashkil etish;

- Islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo`shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o`rganish asosida yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish;

- dinni zo`ravonlik va qon to`kish bilan bir qatorga qo`yadigan buzg`unchi yot g`oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida aholining, ayniqsa yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish;

- jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo`lgan g`oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish;

- jamiyatda bag`rikenglik, o`zaro hurmat, mehr-oqibat, tinchlik va totuvlikni, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy soha vakillarining daxldorlik hissi va ishtirokini yanada oshirish;

- diniy-ma'rifiy tashkilotlarning moddiy-texnika ta'minotini mustahkamlash, soha vakillari mehnatini munosib rag'batlantirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;

- globallashtirish sharoitida jamiyatimizdagi ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va e'tiqod erkinligiga tahdid tug'dirishi mumkin bo'lgan omillarni barvaqt aniqlash va oldini olishga qaratilgan axborot-tahliliy faoliyatni kuchaytirish;

- diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini rivojlantirish asosida ta'lim sifatini oshirish, diniy-ma'rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimini yaratish va hokazo.

Shu bilan birga Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo'yicha qo'mita tuzilmasida 15ta shtat birligidan iborat Diniy-ijtimoiy jarayonlarni o'rganish axborot-tahlil markazi tashkil etildi. Markaz din ishlari bo'yicha qo'mitaning diniy mavzularga oid adabiyotlar, Internet va ommaviy axborot vositalari materiallarini chuqur tahlil qilish, diniy-ijtimoiy muhitni barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish faoliyatini amalga oshiradigan axborot-tahliliy tuzilmasi hisoblanadi. Quron ilmlari, hadis, islom huquqi, aqida, tasavvuf, islom iqtisodiyoti va moliyasi, xalqaro munosabatlar, xorijiy tillar (arab, fors, ingliz, rus, urdu, turk va b.) va boshqa xalqaro miqyosda ehtiyoj mavjud bo'lgan sohalar bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlashga, o'rta maxsus, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, malaka oshirish bosqichlarida uzluksiz ta'limning yaxlit tizimini tashkil etishga va ilmiy merosni chuqur tadqiq qilish va asrab-avaylashga, diniy va dunyoviy bilim berishga ixtisoslashgan yetakchi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi;

Respublikadagi barcha islom ta'lim muassasalari faoliyatini o'quv-me'yoriy va o'quv-uslubiy jihatdan ta'minlash hamda muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi bitiruvchilariga umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida sohaga tegishli fanlar bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berildi.

O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi huzuridagi «Ziyo» media markazi mamlakatimizda dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ajdodlarimizning islom va

jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan boy diniy-ilmiy merosini keng targ‘ib qiluvchi, diniy-ma‘rifiy hayotdagi yangiliklarni jamoatchilikka yetkazuvchi asosiy media tuzilma sifatida shakllantiriladi. Vazirlar Mahkamasiga uch oy muddatda «Ziyo» media markazi ishini samarali tashkil etish maqsadida uni aloqa vositalari, keng qamrovli Internet tarmog‘i, zamonaviy telestudiya, televizion uskunalar jamlanmasi, kompyuter texnikalari, dasturiy ta‘minot va boshqa texnika vositalari bilan ta‘minlash choralarini ko‘rish topshirildi.

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining xalqaro maydondagi imidjini oshirish, salohiyatini namoyon etish, xorijlik fuqarolarni akademiyada o‘qishga keng targ‘ib qilish, shu bilan birga, xalqaro hamkorlikning yangi marralariga erishish maqsadida ko‘plab ishlarni amalga oshirilmoqda. Akademiyaning xalqaro hamkorlik bo‘yicha faoliyati asosan quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: xorijiy oliy ta‘lim muassasalari, ilmiy tadqiqot markazlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish; xorijiy delegatsiyalarni kutib olish; akademiya rahbariyati, xodimlari, professor o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilarining xorijiy safarlarini uyushtirish; xalqaro konferensiya, seminar, vebinar kabi tadbirlarni tashkil etish; xalqaro grantlar; xorijlik professor o‘qituvchilarni akademiya o‘quv jarayoniga jalb etish; xorijiy talabalar, doktorantlar, ilmiy tadqiqotchilar bilan ishlash va hokazo.

O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5416-son Farmonining ilmiy tadqiqotlar natijalari bo‘yicha diniy-ma‘rifiy, ma‘naviy-axloqiy yo‘nalishlardagi ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlarni tayyorlash va nashr qilish, shuningdek, Internet jahon axborot tarmog‘ida ta‘lim resurslarini yaratish va muntazam yangilab borish degan bandidan kelib ciqqan holda, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining “Islom ziyosi” (The Light of Islam) hamda “Islom tafakkuri” (Islamic Thought) nomli ilmiy jurnallari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining tarix, islomshunoslik, falsafa va filologiya

yoʻnalishlari boʻyicha eʼlon qilingan maqolalar inobatga olinuvchi nashrlar roʻyxatiga kiritilgan.

Jurnallarda ham “Islomshunoslik”, “Qurʼonshunoslik”, “Islom huquqi”, “Tilshunoslik va manbashunoslik”, “Tarix”, “Dinshunoslikning dolzarb masalalari”, “Millatlararo totuvlik”, “Falsafiy fanlar va psixologiya”, “Filologiya masalalari”, “Jaholatga qarshi maʼrifat”, “Axborot texnologiyalari”, “Islom iqtisodiyoti” va boshqa ruknlar mavjud. “Islom ziyosi” (The Light of Islam) hamda “Islom tafakkuri”ning (Islamic Thought) elektron shakli Oʻzbekiston Xalqaro Islom Akademiyasining rasmiy iiau.uz veb-saytida eʼlon qilinuvchi jurnalda chop etib boriladi. Oʻzbekiston Xalqaro Islom Akademiyasining rektori “Islom ziyosi” tahrir kengashining raisi hisoblanadi.

Oʻzbekiston Xalqaro Islom Akademiyasida 2023/2024-oʻquv yilida amalga oshirilgan ishlar boʻyicha hisobotini tekshirib chiqilganda Akademiya oʻziga yuklatigan ishlarni muvoffaqiyatli amalga oshirayotgani maʼlum boʻldi. Misol uchun farmonda belgilangan chora-tadbirlarning “Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy gʻoya asosida birgalikda kurashish hamda buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-maʼnaviy merosini keng tagʻib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning asarlari tarjimasini amalga oshirish, ular asosida risolalar yaratish” ijrosi yuzasidan 32 ta xalqchil risola tayyorlangan.

Akademiya taʼlim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilgʻor xorijiy tajribani oʻrganish hamda oʻquv jarayoniga tadbiiq etish maqsadida 32 nafar professor-oʻqituvchilar Misr, Hindiston, Oʻmon Sultonligi, Qozogʻiston va Rossiya federatsiyasining nufuzli oliy taʼlim muassasalarida malaka oshirish va stajirovka oʻtash uchun yuborildi. Shuningdek, 16 nafar xorijiy (Yaponiya, Xitoy, Misr, Turkiya, Qozogʻiston va Rossiya) professor-oʻqituvchilar Akademiya oʻquv jarayoniga jalb etilgan. AQSHda istiqomat qilayotgan vatandoshlar uchun Oʻzbekistonda diniy-maʼrifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarga oid 25 ta bevosita davra suhbatlari oʻtkazildi; “Tong yulduzi”, “Ishonch”, “Hurriyat”, “Jamiyat” kabi markaziy nashrlarda Markaz xodimlarining 10 ga yaqin publitsistik maqolalari chop etildi. Islom dini mohiyatini buzib talqin qilayotgan radikal guruhlariga qarshi

42 ta videorolik, 23 ta audio material tayyorlandi va yana ko‘plab maqolalar xorijiy jurnallarda nashr qilingan. “Library” dasturiga hozirgi kunga qadar audi oshaklidagi 5731 elektron va 1540 adabiyot joylashtirilgan. 4 ming 200 elektron kitob maxsus fonda saqlanyapti. Mavjud adabiyotga ehtiyoj o‘rganilib, talab yuqori bo‘lgan darsliklar skaner qilinmoqda. “Book.iiu.uz” dasturi orqali elektron a‘zolik tizimli amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda 1605 talaba kutubxonaga elektron tarzda a‘zo bo‘lgan. Markaz tomonidan 60 070 nusxadagi adabiyot maxsus shtrix kod bilan ta‘minlangan. Shuningdek, imkoniyati cheklangan talabalar uchun 52 nomdagi audio darslik, 56 nomda, 738 nusxada Brayl alifbosidagi darslik, 47 nomda, 700 nusxada ilmiy adabiyot hamda 9 nomda, 38 nusxada badiiy adabiyot joriy qilingan.

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida zamon talablaridan va globallashuv jarayonidan kelib chiqqan holda yangi- “Axborot xavfsizligini boshqarish” mutaxassislik yo‘nalishi ochildi. Bu haqda O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi Matbuot xizmati xabar berdi. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida mazkur yo‘nalishda tayyorlanadigan talabalar axborot makonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlar, texnologik, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, mafkuraviy, diniy va boshqarishda zarur bilim va tajribaga ega mutaxassislar tayyorlanadi. Shuningdek, talabalar jamoatchilik bilan aloqalarini mustahkamlash hamda faoliyat samaradorligini ta‘minlashda axborot va zarur ma‘lumotlarni tahlil etadigan mutaxassis sifatida o‘qitiladi. Shuni alohida qayd etish o‘rinliki, so‘nggi vaqtlarda axborot xavfsizligi sohasida butun dunyoda diniy ilmga ega bo‘lgan tajribali mutaxassislarga ehtiyoj ortmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlardagi maqolalar, blogpostlar, audio va vizualmahsulotlarning kun sayin ortib borayotgani, ijtimoiy tarmoqlarda ekstremistik ruhga ega bo‘lgan chiqishlar tobora ko‘payayotgani ushbu yo‘nalishdagi mutaxassislarga ehtiyoj uyg‘onganini tasdiqlaydi. Akademiya rasmiy saytida ushbu mutaxassislik yo‘nalishining tashkil etilishiga quyidagicha izoh bildirilgan: “Bugun hayotimiz va butun ish faoliyatimizni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Yuqori texnologiyalarning jadal rivojlanishi mavjud axborotdan samarali va o‘rnida foydalanish barobarida noto‘g‘ri va xato xabarni saralashni o‘rganish hamda

foydalanuvchini kiber tahdidlarning har qanday ko‘rinishidan himoya qilishni ham taqozo etmoqda”.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Xalqaro Islom Akademiyasi mamlakatda paydo bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqib tashkil etilgan. Akademiyaning faoliyati mamlakatdagi islomiy ishlarni tartibga solish bilan shug‘ullanmoqda. Bu deyarli barcha sohada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Akademiya bitiruvchilari bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining deyarli barcha vazirlik va idoralari, yirik xalqaro tashkilotlar, ilg‘or mahalliy va xorijiy kompaniya (shirkat)larda muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqdalar. Ular erishgan yutuqlar zahirida Akademiyaning salmoqli o‘rni bor. Mamlakatimizda islom ma‘rifati, ziyosini sochishda Islom xalqaro Akademiyasining o‘rni nioyatda katta. Akademiya faoliyati asosida din mohiyatini to‘g‘ri tushunish asosida ekstremizm va terrorizm kabi jamiyatimiz tinchlik va xavfsizligiga tahdid solayotgan salbiy holatlarning oldini olish mumkun bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5416-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi “O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasifaoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 466-son Qarori
3. Sh. M. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, “O‘zbekiston”, T. 2022.-B.160.
4. <https://www.ii.au.uz/oz/news/38>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_xalqaro_islom_akademiyasi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM JARAYONIDA QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH.

Ernazarova Munisxon Jo'raqulovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Umumiy pedagogika kafedrası o'qituvchisi
Telefon: +998917793882

munisxonernazarova21@gmail.com

Chirchiq davlat pedagogika
universiteti Pedagogika fakulteti
2-bosqich talabasi
Bahodirova Mashhura Zafarovna
Tel: +998940946805

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etishning mohiyati va ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Qadriyatli yondashuv tamoyillari dars jarayonida bu yondashuvni qo'llash usullari va kutilayotgan samaralar batafsil yoritilgan. Mazkur yondashuv orqali o'quvchilarning bilim olish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishlari, ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol topishlari ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: Qadriyatli yondashuv, umumiy o'rta ta'lim, ta'lim jarayoni, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, tarbiya, interfaol, metod, dars, tashkil etish.

ANNOTATION: This article explores the essence and importance of organizing the educational process in general secondary schools based on a value-based approach. It discusses the principles of the value-based approach during lessons, and the expected outcomes in detail. Through this approach, students are expected not only to gain knowledge but also to internalize national and universal values, fostering their spiritual and moral development.